

**Sport maktablari
xodimlari mehnatiga haq
to'lash va ularning
mehnatini moddiy
rag'batlantirish
tartibiga oid
USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent – 2025

Sport maktablari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularning mehnatini moddiy rag'batlantirish tartibi tartibiga oid uslubiy qo'llanma T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – 21 bet.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasidagi sport maktablari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularning mehnatini moddiy rag'batlantirish tartibini belgilashga qaratilgan bo'lib, u sport-ta'lim muassasalari, tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar uchun amaliy yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi. Qo'llanmada sport maktablari xodimlariga mehnatga haq to'lashning asosiy prinsiplari, lavozimga mos tarif stavkalari, ustama va mukofotlar belgilash tartibi, moddiy rag'batlantirish shakllari hamda tegishli moliyalashtirish manbalari yoritilgan. Ushbu hujjat sport maktablarida xodimlarning mehnatini adolatli baholash, ularni samarali ishlashga undash va inson resurslarini boshqarishda yagona yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar.....	4
Kirish.....	5
Umumiy qoidalar.....	6
Sport maktablari trener-o'qituvchilarining lavozim maoshlari.....	9
Qo'shimcha haq va ustamalar	16
Yakunlovchi qoidalar.....	20

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni	
Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 23-sentabrdagi 211-son "Sport maktablari faoliyatini hamda sport maktablari trenerlari va mutaxassislari mehnatini moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi 465-son "O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida **sport-ta'lim tizimini rivojlantirish, sport maktablari faoliyatini takomillashtirish va ularda faoliyat yuritayotgan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash** borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, sport maktablari murabbiylari, pedagoglari va boshqa xodimlariga mehnatga haq to'lash hamda ularning mehnatini moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini yanada adolatli va samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur uslubiy qo'llanma **sport maktablari xodimlari mehnatiga haq to'lash va rag'batlantirish tizimini tartibga solishga qaratilgan** bo'lib, unda amaldagi mehnat qonunchiligi, tarif stavkalari, ustama va mukofotlar belgilash mezonlari, moliyaviy intizom va samaradorlikka asoslangan yondashuvlar bayon etilgan. Qo'llanma **sport-ta'lim muassasalarida mehnatga haq to'lash jarayonlarini huquqiy asosda tashkil qilish, xodimlar motivatsiyasini oshirish va budget mablag'laridan maqsadli foydalanishni** ta'minlashda amaliy vosita sifatida xizmat qiladi.

UMUMIY QOIDALAR



O'zbekiston Respublikasidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan sport maktablari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularning mehnatini moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida Nizom **O'zbekiston Respublikasidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan sport maktablarining** (keyingi o'rinlarda sport maktablari deb ataladi) rahbar, trener-o'qituvchi va boshqa xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi va shartlarini belgilaydi.

Sport maktablari direktorlari, direktorlarning o'rinbosarlari, instruktor-metodistlar va trener-o'qituvchilarning ish haqi tarkibiga **bazaviy tarif stavkasi**, shuningdek, **O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda ushbu Nizomda nazarda tutilgan ustama va qo'shimcha** haqlar kiradi.



O'zbekiston Respublikasidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan sport maktablari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularning mehnatini moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida Nizom:

Bu muhim!

- ✔ Chavandozlar maktablari direktorlari;




- ✔ oliy ta'lim tashkilotlari hamda Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari xodimlari;

- ✔ xodimlarining mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi va shartlari alohida qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan boshqa sport ta'lim muassasalari;



- ✔ sport maktablarining texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlari mehnatiga haq to'lashga tatbiq etilmaydi.



Sport maktablarining texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlari mehnatiga **Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasi asosida** haq to'lanadi.



Sport maktablari direktorlari, direktorlarning o'rinbosarlari, trener-o'qituvchilar va instruktor-metodistlarning bazaviy tarif stavkalari Vazirlar Mahkamasining **"Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"** 2005-yil 21-dekabrdagi **275-son qaroriga** muvofiq belgilanadi.



Sport maktablari tibbiyot xodimlarining tarif stavkalari Vazirlar Mahkamasining **"Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"** 2005-yil 21-dekabrdagi **276-son qaroriga** muvofiq belgilanadi.

SPORT MAKTABLARI TRENER- O'QITUVCHILARINING LAVOZIM MAOSHLARI

Ma'lumot uchun!

Sport maktablari trener-o'qituvchilariga lavozim maoshlarini belgilash **mehnatga haq to'lashning bazaviy tarif stavkasidan**, belgilangan normativlaridan yoki o'quv-mashq ishlarining **rejalashtirilayotgan hajmlaridan**, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda ushbu Nizomda nazarda tutilgan **ustama va qo'shimcha haqlardan** kelib chiqqan holda ularni **o'quv va kalendar yili boshida tarifikatsiyalashda** amalga oshiriladi.



Bu muhim!

Trener-o'qituvchilarning lavozim **maoshlarini o'zgartirish** sport maktabining tasdiqlangan **mehnatga haq to'lash fondi doirasida** amalga oshiriladi va **sport maktabi direktorining buyrug'i** bilan rasmiylashtiriladi.

Sport maktablarining trener-o'qituvchilari lavozim maoshlarini o'zgartirish:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq budget tashkilotlari xodimlarining **ish haqi oshirilganda;**

Sport maktabidagi **boshqa lavozimga** o'tilganda;

Malaka toifasi o'zgartirilganda (oshirilganda yoki pasaytirilganda);

O'quv guruhlarining ro'yxatdagi tarkiblari, trener-o'qituvchi rahbarligida sport tayyorgarligini o'tayotgan o'quvchi-sportchilarning **sportdagi natijalari o'zgarganda** amalga oshiriladi.

Sport maktablarining trener-o'qituvchilari **mehnatiga haq to'lash** o'quv guruhlari bilan o'tkaziladigan o'quv-mashq ishlari soatlari miqdori uchun amalga oshiriladi.



Bunda ayrim ixtisoslashtirilgan sport maktablarida, olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablarida, sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlarida, oliy sport mahorati maktablarida va Respublika oliy sport mahorati maktablarida **trener-o'qituvchilar mehnatiga O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining buyrug'i asosida 1 nafar o'quvchi-sportchi uchun normativlar bo'yicha haq to'lanishi mumkin.**



Bir sport maktabida **trener-o'qituvchilar mehnatiga haq to'lashning turli shakllarini** qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.



**1 nafar o'quvchi-sportchi uchun sport maktablarining
trener-o'qituvchilari mehnatiga haq to'lash normativlari
bazaviy tarif stavkasiga nisbatan foizlar hisobida quyidagi
miqdorlarda belgilanadi:**

O'quvchi-sportchilarni tayyorlash darajasi va bosqichlari	O'qitish davri	Bir nafar o'quvchi-sportchi uchun normativlar miqdori, bazaviy tarif stavkasiga nisbatan foizlarda		
		sport turlari guruhlari		
		I	II	III
I. O'zbekiston Respublikasi terma jamoalari tarkibiga sportchilarni, respublika va xalqaro musobaqalar sovrindorlarini tayyorlash				
Terma jamoaning asosiy tarkibi	butun davrda	55 gacha	45 gacha	40 gacha
Terma jamoaning zaxira tarkibi	butun davrda	45 gacha	35 gacha	30 gacha
Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari va kuboklari sovrindorlari (I — III o'rinlar)	butun davrda	150 gacha	150 gacha	150 gacha
Osiyo va Paraosiyo o'yinlari, Osiyo chempionatlari va kuboklari sovrindorlari (I — III o'rinlar)	butun davrda	140 gacha	140 gacha	140 gacha
O'zbekiston Respublikasi chempionatlari va kuboklari sovrindorlari (I — III o'rinlar)	butun davrda	100 gacha	100 gacha	100 gacha
II. Sport maktablarida tayyorlash bosqichlarida o'quvchi-sportchilarni tayyorlash				
Oliy sport mahorati	butun davrda	40	25	35
Sport bo'yicha takomillashtirish	1 yilgacha	20	10	15
	1 yildan ko'p	30	15	20
O'quv-mashq mashg'ulotlari	2 yilgacha	8	4	5
	2 yildan ko'p	12	6	8
Boshlang'ich tayyorgarlik	1 yilgacha	2	2	2

	1 yildan ko'p	3	2,5	2,5
Sport-sog'lomlashtirish mashg'ulotlari	12 yoshdan 17 yoshgacha	2,5	2,5	2,5
	12 yoshgacha	2	2	2

Sport turlari guruhlar bo'yicha quyidagi tartibda taqsimlanadi:



sport turlarining birinchi guruhiga — sportning jamoaviy o'yin turlaridan tashqari, **sportning barcha olimpiya turlari kiradi;**



sport turlarining ikkinchi guruhiga — **sportning jamoaviy o'yin turlari** kiradi;



sport turlarining uchinchi guruhiga — **sportning boshqa barcha turlari kiradi.**

1 nafar o'quvchi-sportchi uchun mehnatga haq to'lash normativi miqdori sport maktabining trener-o'qituvchisiga:



O'zbekiston Respublikasi sport terma jamoasining asosiy va zaxira tarkibiga sportchilar tayyorlaganlik uchun — o'quvchi-sportchi O'zbekiston Respublikasi sport terma jamoasining asosiy va zaxira tarkibiga kiritilgan sanadan keyingi oy boshidan e'tiboran belgilanadi va o'quvchi-sportchi jamoa tarkibida bo'ladigan butun davrda saqlanib qoladi;



Olimpiya, Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari hamda kuboklari sovrindorlarini tayyorlaganlik uchun — ko'rsatib o'tilgan sport musobaqalarida o'quvchi-sportchi tomonidan erishilgan natija (I — III o'rinlar) sanasidan keyingi oy boshidan e'tiboran belgilanadi va ushbu darajadagi keyingi xalqaro sport musobaqalari (keyingi Olimpiya, Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o'yinlari, jahon, Osiyo chempionatlari va kuboklari va shu kabilar) o'tkazilgungacha saqlanib qoladi;

O'zbekiston Respublikasi chempionatlari va kuboklari sovrindorlarini tayyorlaganlik uchun — ko'rsatib o'tilgan sport musobaqalarida o'quvchi-sportchi tomonidan erishilgan natija (I — III o'rinlar) sanasidan keyingi oy boshidan e'tiboran belgilanadi va shu kabi keyingi O'zbekiston Respublikasi chempionatlari va kuboklari o'tkazilgungacha saqlanib qoladi, biroq bir yildan ko'p bo'lmagan davrga.



Sport maktablarida o'quv guruhlarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan o'quv-mashq ishlari soatlari hajmlari (o'quv-mashq ishlari rejimi) quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	O'quvchilarni tayyorlash darajasi va bosqichlari	O'qitish yili	O'quv guruhlar bilan o'quv-mashq ishlari rejimi (haftadagi akademik soatlar)
1.	Sport-sog'lomlashtirish mashg'uloti	Butun davrda	6
2.	Boshlang'ich tayyorgarlik	Birinchi o'qitish yili	6
		Bir yildan ko'p o'qitish	8
3.	O'quv-mashq mashg'uloti	Birinchi o'qitish yili	12
		Ikkinchi o'qitish yili	14
		Uchinchi o'qitish yili	18
		Uch yildan ko'p o'qitish	20
4.	Sportda kamolotga erishish	Birinchi o'qitish yili	24
		Ikkinchi o'qitish yili	26
		Ikki yildan ko'p o'qitish	28
5.	Oliy sport mahorati	Butun davrda	32

QO'SHIMCHA HAQ VA USTAMALAR


BU MUHIM!

Ixtisoslashtirilgan sport maktablarida, olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan sport maktablarida, oliy mahorat sport maktablarida, oliy sport mahorati maktablarida hamda **Respublika oliy sport mahorati maktablarida** ishlayotgan katta trener-o'qituvchilarga, katta instruktor-metodistlarga, shuningdek **"Xizmat ko'rsatgan sport ustasi"** faxriy unvoniga ega bo'lgan xodimlarga mehnatga haq to'lashning **eng kam miqdorining 7,1 foizi miqdorida** har oylik qo'shimcha haq belgilanadi.



O'zbekiston terma jamoasi tarkibiga (yoki stajyorlikka) kiritilgan sportchini tayyorlaganlik uchun ustama, uning **jamoaga qabul qilingan oyidan boshlab belgilanadi va u tarkibda bo'lgan butun davr davomida saqlanadi.**


Ustamalar miqdori:



sport maktabining direktori, direktorning o'quv ishlari, sport, ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya, futbolni rivojlantirish bo'yicha o'rinbosarlari, instruktor-metodistlari, trener-o'qituvchilari, raqamlashtirishni joriy qilish bo'yicha mutaxassislari uchun — **belgilangan bazaviy tarif stavkasining 200 foizidan;**



sport maktabining buxgalterlari uchun — **belgilangan bazaviy tarif stavkasining 150 foizidan;**



sport maktabining kadrlar bo'yicha (xodimlar bilan ishlash bo'limi) inspektorlari va tibbiyot xodimlari uchun — **belgilangan bazaviy tarif stavkasining 100 foizidan;**



sport maktabining xo'jalik mudirlari uchun — **belgilangan bazaviy tarif stavkasining 50 foizidan oshmasligi kerak.**

Sport maktabi rahbariyati va xodimlari mehnatini rag'batlantirish maqsadida, o'quvchi-sportchilar yuqori sport natijalariga erishgan taqdirda, ularga bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik ustamalar belgilanadi.

O'quvchi-sportchilarning sportdagi natijalari	O'quvchi-sportchini tayyorlashda bevosita qatnashgan xodimlarga bir nafar o'quvchi-sportchi uchun ustama haq miqdori, bazaviy tarif stavkasiga nisbatan foizlarda		
	Trenerga	Direktorga	Direktorning o'quv ishlari, sport, ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya, futbolni rivojlantirish bo'yicha o'rinbosarlari, instruktor-metodistlari, raqamlashtirishni joriy qilish bo'yicha mutaxassislari, buxgalterlari, kadrlar bo'yicha (xodimlar bilan ishlash bo'limi) inspektorlari, tibbiyot xodimlari va xo'jalik mudirlariga
I. Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari, Osiyo va Paraosiyo o'yinlari dasturlariga kiritilgan sport turlari			
Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari, Jahon chempionati va kubogi g'oliblari hamda sovrindorlari (I — III o'rinlar)	50	10	8
Osiyo va Paraosiyo o'yinlari, Osiyo chempionati va kubogi g'oliblari hamda sovrindorlari (I — III o'rinlar)	40	7	6
O'zbekiston chempionati va kubogi g'oliblari hamda sovrindorlari (jamoaviy sport)	10	6	5

turlaridan tashqari) (I — III o'rinlar)			
Jamoaviy sport turlari bo'yicha O'zbekiston chempionati va kubogi g'oliblari hamda sovrindorlari (I — III o'rinlar)	20	6	5
Jamoaviy sport turlari bo'yicha O'zbekiston chempionati va kubogining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi g'oliblari hamda sovrindorlari (I — III o'rinlar)	5	-	-
II. Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari, Osiyo va Paraosiyo o'yinlari dasturlariga kiritilmagan sport turlari			
Jahon chempionati va kubogi g'oliblari hamda sovrindorlari (I — III o'rinlar)	25	5	4
Osiyo chempionati va kubogi g'oliblari hamda sovrindorlari (I — III o'rinlar)	20	4	3
O'zbekiston chempionati va kubogi g'oliblari hamda sovrindorlari (I — III o'rinlar)	5	3	3
III. Sport turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi terma jamoasi a'zosi			
Asosiy tarkib a'zosi	5	3	3
Zaxira tarkib a'zosi	3	2	2

YAKUNIY QOIDALAR



O'zbekiston Respublikasi terma jamoalari asosiy va zaxira tarkiblari belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan tasdiqlanadi va sport maktablariga yetkaziladi.



Sport maktablarining direktoriga, direktorning o'quv ishlari, sport, ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya, futbolni rivojlantirish bo'yicha o'rinbosarlariga, instruktor-metodistlariga, trener-o'qituvchilariga, raqamlashtirishni joriy qilish bo'yicha mutaxassislariga, buxgalterlariga, kadrlar bo'yicha (xodimlar bilan ishlash bo'limi) inspektorlariga, tibbiyot xodimlariga va xo'jalik mudirlariga qo'shimcha haq va ustamalar ularning ish haqini to'lash bilan bir vaqtda to'lanadi.



Ish haqi, ustama hamda qo'shimcha to'lovlarining to'g'riligi va xolisligi ustidan nazorat vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

[illegible]